



**ICHKI ISHLAR ORGANLARINING YO‘L HARAKATI
SOHASIDAGI MA‘MURIY HUQUQBUZARLIKLAR TO‘G‘RISIDAGI
ISHLARNI YURITISHDAGI VAKOLATLARI**

J.X. Parmonov

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Ichki ishlar organlarining ma‘muriy faoliyati
kafedrası katta o‘qituvchisi, podpolkovnik

<https://doi.org/10.5281/10.5281/zenodo.20423632>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ichki ishlar organlarining yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash hamda ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishdagi huquqiy maqomi va vakolatlari tahlil qilingan. Milliy qonunchilik va yillik statistik ma‘lumotlar asosida ma‘muriy ishlarni ko‘rib chiqish jarayonidagi amaliy muammolar, xususan, asossiz bayonnomalar rasmiylashtirilishi hamda dalillarga xolis baho berilmasligi sabablari o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada hodisa joyini ko‘zdan kechirish, eksperiment o‘tkazish va ma‘muriy ish yuritishni to‘xtatib turish kabi protsessual harakatlarning huquqiy asoslari qonunchilikda to‘liq belgilanmaganligi ko‘rsatib o‘tilgan va ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan aniq takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari, yo‘l harakati xavfsizligi, ma‘muriy huquqbuzarlik, ma‘muriy javobgarlik, yo‘l-patrul xizmati, ma‘muriy ish yuritish, dalillarni to‘plash, huquqiy bo‘shliq, qonunchilikni takomillashtirish.

**POWERS OF INTERNAL AFFAIRS BODIES IN PROCEEDINGS ON
ADMINISTRATIVE OFFENSES IN THE SPHERE OF ROAD TRAFFIC**

Abstract: This article analyzes the legal status and powers of internal affairs bodies in ensuring road safety and conducting proceedings on administrative offenses. Based on national legislation and annual statistical data, the author

Contact: 99 826 99 56



examines practical problems in the adjudication process, particularly the reasons for the issuance of unjustified protocols and the lack of objective assessment of evidence. Furthermore, the article highlights that the legal grounds for procedural actions—such as inspecting the scene of an incident, conducting experiments, and suspending administrative proceedings—are not fully established in the legislation. In conclusion, specific proposals are put forward to improve the legislation on administrative liability.

Keywords: internal affairs bodies, road traffic safety, administrative offense, administrative liability, road patrol service, administrative proceedings, evidence collection, legal gap, improvement of legislation.

ПОЛНОМОЧИЯ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В ПРОИЗВОДСТВЕ ПО ДЕЛАМ ОБ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЯХ В СФЕРЕ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируются правовой статус и полномочия органов внутренних дел в обеспечении безопасности дорожного движения и ведении производства по делам об административных правонарушениях. На основе национального законодательства и ежегодных статистических данных рассматриваются практические проблемы в процессе рассмотрения административных дел, в частности, причины составления необоснованных протоколов и необъективной оценки доказательств. Кроме того, в статье указывается на то, что в законодательстве не в полной мере закреплены правовые основания для проведения таких процессуальных действий, как осмотр места происшествия, проведение эксперимента и приостановление административного производства. В заключение выдвигаются конкретные предложения по совершенствованию законодательства об административной ответственности.





Ключевые слова: органы внутренних дел, безопасность дорожного движения, административное правонарушение, административная ответственность, дорожно-патрульная служба, административное производство, сбор доказательств, правовой пробел, совершенствование законодательства.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash, ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish va ma‘muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etish ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuning 17-moddasiga muvofiq, “ichki ishlar organlari ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyga, hodisa joyiga darhol yetib kelishi, g‘ayriqonuniy qilmishlarga chek qo‘yishi, fuqarolarning xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etishi, jinoyat, ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi holatlarini, hodisa holatlarini hujjatlashtirishi, ma‘muriy huquqbuzarlik, hodisa izlarining saqlanishini ta‘minlashi, ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyda yoki hodisa joyida jabrlangan fuqarolarga, shuningdek nochor ahvolda qolgan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam yoki boshqa xil yordam ko‘rsatilishini tashkil etishi, o‘z vakolatlari doirasida ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishi, ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ekspertizalarni tayinlashi hamda o‘tkazishi, transport vositasini boshqarishga bo‘lgan huquqdan mahrum qilish to‘g‘risidagi sud qarorlarini ijro etishi, transport vositalarining, yo‘l harakati qoidalari buzilishlarining hamda yo‘l-transport hodisalarining hisobini yuritishi va ularni ro‘yxatga olishi, yo‘l-transport hodisalari to‘g‘risidagi hujjatlarni rasmiylashtirishi, shaxsni mastlik holatida deb hisoblashga asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda uning transport vositasini boshqarishdan chetlatilishini hamda mastlik holatini aniqlash uchun uni belgilangan tartibda tekshiruvdan o‘tkazilishini ta‘minlashi, texnik holati



xavfsizlik bo'yicha belgilangan talablarga javob bermaydigan transport vositalaridan foydalanishni taqiqlashi, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablar bajarilmayotgan bo'lsa, ko'chalar va yo'llarda ta'mirlash-qurilish ishlari hamda boshqa ishlar o'tkazilishini cheklashi yoki taqiqlashi, yo'l harakati xavfsizligi standartlari, qoidolari va normalariga mos kelmaydigan yo'llardan hamda temir yo'ldan o'tish joylaridan foydalanishni taqiqlashi kabi majburiyatlarni bajarishi shart" [1] ekanligi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 19 yanvardagi "Yo'l harakati to'g'risida"gi O'RQ-900-son Qonunining 10-moddasiga muvofiq, "davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati :

yo'l harakati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda ishtirok etadi;

yo'l harakati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar va normativ hujjatlar loyihalarini o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqadi;

yo'l harakati to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazoratini o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi;

og'ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashuvchi transport vositalarining harakatlanish yo'nalishlarini belgilashda ishtirok etadi;

yo'llarni, temir yo'llar kesishmalarini, shuningdek avtomobillarga yoqilg'i quyish stansiyalarini va yo'llar bo'ylab hamda yo'l bo'yi hududlarida joylashgan boshqa inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda kapital ta'mirlash loyihalarini yo'l harakatini tashkil etishga oid qism bo'yicha ko'rib chiqadi va kelishadi;

qurilishi (rekonstruksiya qilinishi) va kapital ta'mirlanishi tugallangan yo'l ob'ektlarini, temir yo'llar kesishmalarini foydalanishga qabul qilish bo'yicha komissiyalarning ishida ishtirok etadi;





foydalanishdagi transport vositalarining texnik holati ustidan nazoratni amalga oshiradi, transport vositalarining majburiy texnik ko'rigini o'tkazadi (bundan jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan M1 toifasidagi transport vositalari mustasno);

yo'l harakatining monitoringini tashkil etadi va amalga oshiradi;

yo'l harakatini tashkil etish texnik vositalarining texnik holati, shuningdek yo'llarning va temir yo'llar kesishmalarining saqlanishi, ularning yo'l harakatini tartibga solish vositalari bilan jihozlanishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

yo'l harakati sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo'lmagan yo'llardan va temir yo'llar kesishmalaridan foydalanishni belgilangan tartibda taqiqlaydi;

yo'l harakatini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi;

yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini o'rnatish yoki olib tashlash yuzasidan yo'l egalariga ko'rsatmalar kiritadi, ularni bajarish muddatlari va sifati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

yo'lda (yo'lning uchastkasida) transport vositalarining harakatlanishini ushbu Qonunning 23-moddasiga muvofiq cheklaydi yoki taqiqlaydi;

yo'l harakati sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etadi;

yo'llarda va yo'l bo'yi hududlarida ishlarni amalga oshirish bo'yicha tegishli tashkilotlar bilan kelishilgan takliflarni ko'rib chiqadi;

o'z vakolatlari doirasida davlat organlariga yoki boshqa tashkilotlarga, ularning mansabdor shaxslariga yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini o'rnatish va ulardan foydalanishga doir faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish haqida, biron-bir yo'l uchastkasida harakat xavfsizligiga tahdid soluvchi, Yo'l harakati qoidalarining buzilishiga imkon beruvchi vaziyat yuzaga kelganda kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar



kiritadi, mazkur yozma taqdimnomalarni bajarish choralari ko‘rilmagan taqdirda ma’muriy jazolar qo‘llaydi;

yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalari loyihalashtirilishini, o‘rnatilishini (montaj qilinishini), almashtirilishini, olib tashlanishini tashkil etadi, bu ishlarning bajarilishini nazorat qiladi;

Toshkent va Nukus shaharlarining, viloyat, tuman (shahar) markazlarining ko‘chalarida yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini o‘rnatishni (montaj qilishni), almashtirishni, olib tashlashni hamda ularga texnik xizmatlar ko‘rsatishni amalga oshiradi;

Toshkent va Nukus shaharlarining, viloyat, tuman (shahar) markazlarining ko‘chalarida yo‘l harakatini tashkil etish texnik vositalarining joylashuvini yuritadi va ularning joylashuvga muvofiqligi hamda texnik holati ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

transport vositalarining, Yo‘l harakati qoidalari buzilishlarining hamda yo‘l-transport hodisalarining hisobini yuritadi va ularning ro‘yxatga olinishini amalga oshiradi;

milliy haydovchilik guvohnomalarini, avtomototransport vositalari ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomalarni hamda avtomototransport vositalari va ularning tirkamalari (yarim tirkamalari) uchun ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarini beradi;

ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni o‘z vakolatlari doirasida ko‘rib chiqadi.

Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin” ligi nazarda tutilgan [2].

V.Golovkaning ta’kidlashicha “Rossiya Federasiyasining “Militsiya to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, mazkur qonunchilikni amalga oshirishda muhim o‘rin IIV Davlat yo‘l harakati xavfsizligi inspeksiyasiga tegishli bo‘lib, uning





vakolatiga quyidagilar kiradi: yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash, ushbu sohadagi qoidalar va me‘yoriy standartlarga rioya etilishini nazorat qilish” [3] hisoblanadi.

Fikrimizcha V.Golovka ichki ishlar organlarining yo‘l harakati sohasidagi ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishdagi vakolatlarini tor doirada ifodalagan. Chunki, mazkur faoliyat nafaqat ma‘muriy huquqbuzarliklarni aniqlash, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma rasmiylashtirish, ishni ko‘rib chiqish va ma‘muriy jazo qo‘llash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash va qonun ustuvorligini ta‘minlashga ham qaratilgandir.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, transport vositalari soni yildan-yilga o‘sib, yo‘l harakati sohasidagi ma‘muriy huquqbuzarliklarning soni ham tobora ortib borayotganligi tufayli ushbu sohasidagi ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishda ham bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Yo‘l harakati sohasidagi ma‘muriy huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavflilik darajasi past deb hisoblansada, bugungi kunda sodir etilayotgan odamlarning tan jarohati olishiga yoki o‘limiga sabab bo‘lgan og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalari ham aynan yo‘l harakati qoidalarining qo‘pol ravishda buzilishi natijasida sodir etilmoqda.

Mamlakatimizda **2024-yilda jami 24301212 ta** yo‘l harakati sohasidagi ma‘muriy huquqbuzarliklar sodir etilgan bo‘lsa, **2025-yilda esa bu ko‘rsatgich 26927710 tani** tashkil qilib, o‘tgan yilga nisbatan **10,8 foizga** ko‘p sodir etilganligini kuzatishimiz mumkin [4].

Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish davomida to‘plangan dalillarning





ishonchliligiga to'la va holisona baho berilmayotganligi, shaxslarga nisbatan asossiz ravishda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma rasmiylashtirilib sudga yuborilayotganligi, ish hujjatlari birinchi, appelyatsiya, kassasiya instansiyalarida ko'rib chiqilib, shaxsning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik tarkibi aniqlanmaganligi yoki shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortishning muddati o'tib ketganligi munosabati bilan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishdan tugatish haqida qaror qabul qilinishiga, ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipi talablari buzilib, shaxslar javobgarlikdan qutilib, huquqbuzarlik oqibatida keltirilgan moddiy zararlar qoplanmasdan qolishiga sabab bo'lmoqda. 2025 yilda respublikamizdagi sudlar tomonidan ko'rib chiqilgan jami 690 879 ta ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarning 198284 tasi, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni istisno etuvchi holatlar aniqlanib, ish yuritishdan tugatilgan. Mazkur ishlarning 17574 tasi, ya'ni 8,86 foizi aynan ichki ishlar organlarining yo'l harakati xavfsizligi tomonidan sudga yuborilgan ishlar hissasiga to'g'ri keladi [5].

Yo'l harakati sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi", O'zbekiston Respublikasining "Yo'l harakati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yo'l harakati sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi qarorlari, "Yo'l harakati qoidalari" va IIVning tegishli buyruqlari talablari asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagi normativ-huquqiy xujjatlarga ko'ra, yo'l harakati sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishda ichki ishlar organlari va





ularning mansabdor shaxslarining asosiy vakolatlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

- 1) ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligini aniqlash va huquqbuzarlik harakatlariga chek qo'yish;
- 2) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma rasmiylashtirish;
- 3) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish yoki ishni ko'rib chiqishga vakolatli organga yuborish;
- 4) ma'muriy jazo qo'llash yoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishni tugatish;
- 5) qaror ijrosini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi MJtKning XI bobida yo'l harakati sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikning asoslari keltirib o'tilgan.

Bugungi kunda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchiligimizga muvofiq, yo'l harakati sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar quyidagi vakolatli organ (mansabdor shaxs)lar tomonidan yuritiladi:

- 1) ichki ishlar organlari;
- 2) jinoyat ishlari bo'yicha sudlar;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi organlari;
- 4) bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari;
- 5) yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish organlari;
- 6) mudofaa vazirligi organlari;
- 7) transport vazirligi organlari;
- 8) shahar va shaharlararo yo'lovchi tashiydigan avtomobil transporti va elektr transporti organlari;
- 9) davlat yong'in nazorati organlari.





Ichki ishlar organlari O'zbekiston Respublikasining MJtKning 248-moddasiga muvofiq, ushbu Kodeksning 123, 125-moddalarida, 125¹-moddasining birinchi qismida, 126-moddasida, 127-moddasining birinchi qismida, 128-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 128¹, 128²-moddalarida, 128³-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 128⁴-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 128⁵-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 128⁶-moddasida, 129-moddasining birinchi qismida, 130-moddasining birinchi qismida, 135, 135¹-moddalarida, 136-moddasining uchinchi qismida, 138, 139, 140, 147-moddalarida (*avtomobil yo'llarini o'zboshimchalik bilan qazish, ularda sun'iy notekisliklar va to'siqlar yaratish, avtomobil yo'lida ishlarni amalga oshirish uchun berilgan ruxsatnoma talablarini bajarmaslik, shuningdek yo'llarni saqlash qoidalarini buzishga taalluqli qoidabuzarliklardan tashqari*) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga va ma'muriy jazo qo'llashga vakolatli hisoblanadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 125¹-moddasining ikkinchi qismida, 127-moddasining ikkinchi qismida, 128-moddasining to'rtinchi qismida, 128³-moddasining to'rtinchi va beshinchi qismlarida, 128⁴-moddasining to'rtinchi qismida, 128⁵-moddasining uchinchi qismida, 129-moddasining ikkinchi qismida, 130-moddasining ikkinchi qismida, 131, 132, 133, 134-moddalarida, 136-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 137-moddasida, 142-moddasining ikkinchi qismida, 146-moddasining uchinchi qismida, 146¹-moddasida, 147-moddasida (*avtomobil yo'llarini o'zboshimchalik bilan qazish, ularda sun'iy notekisliklar va to'siqlar yaratish, avtomobil yo'lida ishlarni amalga oshirish uchun berilgan ruxsatnoma talablarini bajarmaslik, shuningdek yo'llarni saqlash qoidalarini buzish*) nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar haqidagi ishlarni ko'rib chiqadi.





Agar huquqbuzar huquqbuzarlik faktini inkor etsa, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi boshqa ishlarni ham, xuddi shuningdek sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi yoki yengilroq ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun o'zlariga topshirilgan ishlarni ham bevosita ko'rib chiqadi".

Shuningdek, mazkur kodeksning 248-moddasiga muvofiq, "ichki ishlar organlarining quyidagi mansabdor shaxslari yo'l harakati sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga va ma'muriy jazo qo'llashga haqli:

1) Tumanlar, shaharlar, shaharlardagi tumanlar ichki ishlar bo'limlarining (boshqarmalarining) boshliqlari yoki boshliq o'rinbosarlari, shuningdek transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmalarining (bo'limlarining) boshliqlari (123-moddalarida, 142-moddasining birinchi va uchinchi qismlari)

2) Ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika katta inspektorlari va inspektorlari (54, 123-moddalarida, 127-moddasida (tovush signalini sababsiz berishga doir qismida), 128⁶-moddasida, 147-moddasining birinchi qismida)

3) Ichki ishlar organlari yo'l harakati xavfsizligi xizmatining (boshqarmasining) boshlig'i, uning o'rinbosarlari, yo'l-patrul xizmatini hamda ma'muriy amaliyotni tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'limining boshlig'i, muhim topshiriqlar bo'yicha bosh inspektor, inspektor (ma'muriy amaliyot bo'yicha), ma'muriy amaliyot bo'linmasining (bo'limining) boshlig'i, ma'muriy huquqbuzarliklar materiallarini ko'rib chiqish bo'yicha bosh inspektor, katta inspektor (inspektor), yo'l harakati xavfsizligi bo'limining (bo'linmasining) boshlig'i, davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatining katta inspektori va yo'l harakati xavfsizligi guruhining ma'muriy amaliyot bo'yicha inspektori, ular



yo'qligida esa ichki ishlar bo'limining boshlig'i yoki uning o'rinbosari; (54, 123, 125, 125¹, 126-moddalari, 127-moddasining birinchi qismida, 128, 128¹, 128², 128³, 128⁴, 128⁵, 128⁶, 128⁷, 128⁸, 128⁹, 129, 130, 135, 135¹-moddalari, 136-moddasining uchinchi qismi, 138, 139-moddalari, 140-moddasining birinchi qismida, 147-moddasi)

4) Yo'l-patrul xizmati brigadasi (bataloni, divizioni, otryadi, safarbar guruhi) komandiri yoki komandirining o'rinbosari (54,123, 125, 125¹, 126-moddalarida, 127-moddasining birinchi qismida, 128, 128¹, 128², 128³, 128⁴, 128⁵, 128⁶, 128⁷, 128⁸, 128⁹, 129, 130-moddalari, 135-moddasining birinchi qismida, 135¹-moddasi, 138-moddasining birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida, 147-moddasining birinchi qismi);

5) Yo'l-patrul xizmatining katta inspektori (inspektori) va yo'l harakati qoidalariga hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga oid boshqa normativ hujjatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi boshqa xodimlar (54, 123-moddalarida, 125-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 126-moddasining birinchi qismida, 127-moddasining birinchi qismida, 128-moddasida, 128²-moddasining birinchi qismida, 128³, 128⁴, 128⁷, 128⁸, 128⁹-moddalarda, 135-moddasining birinchi qismida, 135¹-moddasida, 138-moddasining birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida)

Ushbu mansabdor shaxslar O'zbekiston Respublikasi MJtKning 54-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga hamda ma'muriy jazoni faqat karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi hamda tarqalishi munosabati bilan tegishli hududlarda yoki ob'ektlarda cheklovchi tadbirlar (karantin) joriy etilgan taqdirda, qo'llashga haqlidir[6].

Yuqorida keltirilgan mansabdor shaxslardan tashqari O'zbekiston Respublikasi MJtKning 128⁶-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy





huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda, ichki ishlar organlari patrul-post xizmati bo'linmalarining mansabdor shaxslari ichki ishlar organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani tuzishga vakolatli hisoblanadi. Biroq ular ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llash vakolatiga ega emas. Shu bois, ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha rasmiylashtirilgan bayonnoma ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organga (mansabdor shaxsga) O'zbekiston Respublikasi MJtKning 282-moddasida belgilangan tartibda yuboriladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ichki ishlar organlarining yo'l harakati sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishdagi vakolatlari milliy qonunchiligimizda to'la-to'kis va aniq belgilanmaganligi muammosi mavjud. Xususan, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida hodisa joyini ko'zdan kechirish, eksperiment o'tkazish, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishga to'sqinlik qiluvchi holatlar (huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs aniqlanmaganda, huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsni qidirib topishning imkoniyati bo'lmaganda, huquqbuzar O'zbekiston Respublikasi hududidan chetga chiqib ketganda, jabrlanuvchi muomala layoqatini yo'qotgan taqdirda qonuniy vakil tayinlangunga qadar, o'tkazilishi uzoq vaqt talab etiladigan ekspertiza tekshiruvi tayinlanganida, huquqbuzar uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan og'ir kasallikka chalingan va sh.k.) yuzaga kelganda ish yuritishni to'xtatib turish haqida qaror qabul qilish kabi protsessual harakatlarni o'tkazishning huquqiy asoslari va tartibi belgilab berilmaganligi muammosi mavjud. Shu bois, bugungi kunda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikda hodisa joyini ko'zdan kechirish, eksperiment o'tkazish, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishga to'sqinlik qiluvchi holatlar yuzaga kelganda ish yuritishni to'xtatishning asoslari va tartibining belgilab berilishi ichki ishlar organlarining, qolaversa barcha yo'l harakati sohasidagi ishlarni yuritish vakolatiga ega bo'lgan





davlat organlari tomonidan ishni yuritish davomida ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan ishonchli dalillarni to'plashga, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga o'z vaqtida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma rasmiylashtirish va ishni ko'rib chiqib, adolatli qaror qabul qilishga hamda shaxslarning asossiz ravishda ma'muriy javobgarlikka tortilishining oldini olishga xizmat qiladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/acts/3027843>
2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 19 maydagi "Yo'l harakati to'g'risida"gi O'RQ-900-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/6764454?ONDATE=08.05.2025>
3. Головкин В.В. Административно-юрисдикционная деятельность органов внутренних дел в области дорожного движения: Автореф. дис. ... док. юрид. наук. – Москва, 2008. – С. 22. // URL: <file:///C:/Users/idevice/Downloads/autoref-administrativno-yurisdiktsionnaya-deyatelnost-organov-vnutrennikh-del-v-oblasti-dorozhnogo-d.pdf>
4. O'zbekiston Respublikasi IIV JXD YHXXning 2025 yil statistik ma'lumotlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025 yil statistik ma'lumotlari.
6. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // URL: <https://lex.uz/docs/97664?ONDATE=12.11.2025>